

11-SINF

1-MAVZU. SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



1-keys. “Mustaqillik — xalq iroda va tarixiy zarurat ifodasi”



Vaziyat:

Bitiruvchi o‘quvchi Sardor 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Qonun va tarixiy hujjatlarni o‘rganib, uning huquqiy hamda siyosiy mohiyatini tahlil qildi.



Savollar:

- 1991-yil 31-avgustdagi davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi qanday huquqiy va siyosiy manbaga ega edi?
- Nega mustaqillikni saklash va uni rivojlantirish har bir yetuk fuqaroning strategik burchi hisoblanadi?
- Milliy davlatchilik poydevorini mustahkamlashda sizning bo‘lajak kasbingiz va bilimlaringiz qanday o‘rin tutadi?



Qiziqarli topshiriq:

“Mustaqillik — xalq irodasi va tarixiy zarurat ifodasi” mavzusida 1 sahifali tahliliy esse tayyorlang



1-MAVZU. SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI” (2-hafta)



2-keys. “Kelajak va yoshlar strategiyasi”



Vaziyat:

Bitiruvchilar o‘rtasida kechgan bahsda Nigora: “Biz 1991–yilda poydevori qo‘yilgan mustaqil O‘zbekistonning ertangi taqdirini belgilaydigan hal qiluvchi kuchmiz”, — dedi.



Savollar:

- 1 Zamonaviy O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida yangi avlod kadrlarining roli nimada?
- 2 Ilm–fan, IT, muhandislik va tadbirkorlik sohalaridagi yutuqlar davlat suverenitetini qanday mustahkamlaydi?
- 3 Vatan oldidagi burch va fuqarolik pozitsiyasini siz o‘zingiz uchun qanday ta’riflaysiz?



Qiziqarli topshiriq:

Kelajakdagi mutaxassisligingiz orqali Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha o‘z shaxsiy strategik rejangizni tuzing.

